

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIIGA O'TISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Raimova Muborak Djurayevna

Qarshi davlat universiteti, Turizm va marketing
kafedrasi katta o'qituvchisi,
email: raimova-64@mail.ru

Nazirova Dilnoza

Qarshi davlat universiteti,
“Savdo ishi” ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga otishni takomillashtirishning asosiy yo’nalishlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Kirish. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagи “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4611-sonli Qaroriga ko'ra aksiyadorlik jamiyatları, tijorat bankları, sug'urta tashkilotları va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, buxgalteriya hisobi yuritilishini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab, moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashga o'tdi.[3]

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tishdan maqsad – xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, deb belgilangan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashda tashkilotlar buhgalterlariga MHXS standartlarining mazmuni va tub mohiyatini tushunish hisobotlarni to'g'ri shakllantirish uchun xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning tatbiq etilishi hisobning yagona usullarini qo'llash orqali kompaniyalarni ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarga korxonaning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot berish va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, shuningdek, salohiyatli investorlarni jalg qilishda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi va u hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

MHXSni qabul qilish va unga muvofiq hisobot taqdim etish global bozorda yagona moliyaviy axborot almashish muhitini yaratadi. Bu jarayon o'z navbatida, axborot shaffofligi, hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, MHXS qo'llanishi bozor likvidligi yaxshilanishi, kapital bozorlarining rivojlanishi, qimmatli qog'ozlar bozorlarida savdolar ko'laming kengayishi, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ushbu ijobjiy natijalarga erishish uchun MHXSni milliy bozorda samarali tatbiq etish chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Metodologiya. MHXSni tatbiq etish bo'yicha Yevropa davlatlarining tajribasini o'rghanish va ushbu jarayondagi muammolar va istiqbollarni adolatli baholash O'zbekistonidagi kompaniyalarning MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish jarayoniga o'tish davrida katta imkoniyat hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari (MHXS) – bu tashqi foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun muhim bo'lgan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash qoidalarini belgilaydigan standart va sharhlar majmuasidir.

Moliyaviy hisobot uchun kontseptual asos (ingliz tilida "Conceptual Framework for financial reporting" yoki oddiygina "IFRS Framework") barcha moliyaviy hisobot xalqaro standartlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ularda moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning asosiy tamoyillari MHXSga muvofiq tavsiflanadi. Ushbu hujjat boshqa har qanday MHXSni o'rghanishni boshlashdan oldin o'qilishi kerak.

So'nggi yillarda MHXSning kontseptual asoslari ma'lum o'zgarishlarga duch keldi. Ular ilgari "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish asoslari" deb nomlangan. Ushbu hujjatning so'nggi yangilanishi IASB (International Accounting Standards Board – MHXS Kengashi) tomonidan 2018-yil mart oyi oxirida e'lon qilindi.

MHXSning kontseptual asoslari juda muhimdir, chunki u moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

MHXSning kontseptual asoslarining mazmuni:

- IASB 2018-yil 29-martda qayta ko'rib chiqilgan Moliyaviy hisobot asoslarini e'lon qildi.
- Konseptual asos moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, MHXSni o'rnatish, izchil hisob siyosatini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar va standartlarni tushunishda va izohlashda yordam beradigan to'liq tushunchalar to'plamini taqdim etadi.
- Konseptsiya doirasidagi o'zgarishlar ma'lum bir operatsiya yoki hodisaga hech qanday standart tatbiq etilmagan holatlarda MHXSning qo'llanilishiga ta'sir qilishi mumkin.
- Yangi tahrirdagi Konseptual asos (2018) IASB (International Accounting Standards Board – MHXS Kengashi) va IFRIC (International Financial Reporting Interpretations Committee – (MHXS sharhi bo'yicha Qo'mita) uchun darhol kuchga kiradi. Hisob siyosatini Kontseptual asoslar asosida tuzadiganlar uchun ular 2020-yil 1-yanvardan yoki undan keyin boshlanadigan yillik davrlar uchun amal qiladi.

IASB 2018-yil 29-martda yangi tahrirdagi Moliyaviy hisobot asoslarini e'lon qildi. Yangi tahrirdagi versiyada 1989-yilda chiqarilgan va qisman 2010-yilda qayta ko'rib chiqilgan avvalgi hujjatdagi keng qamrovli o'zgarishlar mavjud.

Oldingi MHXS (2010-yil) uchun kontseptual asos noaniqliklar mavjudligi, ba’zi muhim tushunchalarni chiqarib tashlaganligi va IASBning hozirgi tafakkuri nuqtai nazaridan eskirgani uchun tanqid qilingan.

IASB tomonidan 2011-yilda muhokama qilingandan so’ng, 2012-yil sentabr oyida IASB ish rejasiga Kontseptsiya asoslari loyihasi qo’shildi. Shundan keyin IASB 2013-yil iyul oyida muhokama loyihasini va 2015-yil iyunida dastlabki loyihasini e’lon qildi.

IASB konseptual asoslarni qayta yangi tahrirdagi standartlarni ishlab chiqish, tushunish va izohlashga yordam beruvchi yuqori darajadagi to’liqlik va yetarlilik tamoyillariga amal qilishga intildi.

Yangi tahrirdagi kontseptual asoslarni ba’zi yangi tushunchalarni o’z ichiga oladi. Ular yangilangan tariflar, aktivlar va majburiyatlarni tan olish mezonlarini taqdim etadi oori’zi muhim tushunchalarga oydinlik kiritadi.

Konseptual asoslarni 8 bobdan iborat:

- I bob. Moliyaviy hisobotning maqsadi.
- II bob. Foydali moliyaviy ma’lumotlarning sifat xususiyatlari.
- III bob. Moliyaviy hisobot va hisobot beruvchi tashkilotlar.
- IV bob. Moliyaviy hisobotning elementlari.
- V bob. Tan olish va bekor qilish.
- VI bob. Baholash.
- VII bob. Axborotni taqdim etish va ochiqlash.
- VIII bob. Kapital va kapital miqdorini saqlash konsepsiysi.

2018 yil 29 martda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha Kengash qayta ko'rib chiqilgan Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari (Konseptual asoslarni) – bo'yicha moliyaviy hisobot konsepsiylarining keng qamrovli to'plamini chiqardi.

Konseptual asoslarning avvalgi versiyasi 1989-yilda (29 yil) chiqarilgan va 2010 yilda qisman qayta ko'rib chiqilgan edi. Ushbu versiyalar foydali bo'lgan, biroq barcha muhim masalalarni qamrab olmagan va yaxshilashga ehtiyoj sezgan. Kengash o'z ishida aynan Konseptual asoslarni qayta ko'rib chiqishni ustuvor vazifa etib belgiladi. Konseptual asoslarni MHXS hisoblanmaydi va uning biron bir konsepsiysi standartning konsepsiysi yoki talablarini qayta belgilamaydi.

Konseptual asoslarning maqsadi MHXSni ishlab chiqishda yordam berish, boshqa standartlar qo'llanilmaganda, izchil hisob siyosatini ishlab chiquvchilarga va barcha tomonlarga standartlarni tushunishda va izohlashda yordam berishdir.

Tahlil. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarni takomillashtirish bilan bogliq ilmiy izlanishlar jahoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, International Accounting Standards Board (IASB), American Institute of Certificate Public Accounting (AICPA), Institute of Charter Accounting in England and Welles (ICAEW), Pricewaterhouse Coopers, Deloitte & Touche, KPMG, Nottingham Trent University (Buyuk Britaniya), Xalqaro Vestminister universiteti (Buyuk Britaniya), Rossiya iqtisodiyot universiteti, Rossiya Federetsiyasi hukumati qoshidagi moliya universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya oorishe, Samarqand iqtisodiyot va servis oorishe (O'zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan:

➤ moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) hamda ularga interpretatsiyalarni ishlab chiqish asosida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilish qoidalari ishlab chiqilgan (International Accounting Standards Board, American Institute of Certified Public Accountants);

➤ MHXSlari talablariga muvofiq moliyaviy hisobot shakllari tavsiya etilgan hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni abzopshin oorish (absorption costing) tizimi asosida, pul oqimi to'g'risidagi hisobotni bevosita va bilvosita usullarda tuzish metodologiyasi tavsiya etilgan (Pricewaterhouse Coopers, Deloitte & Touche va Ernst & Young, University of California at Davis);

➤ moliyaviy hisobotning uyg'un va haqqoniy aks ettirilishiga imkon qadar erishish orqali mamlakatning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari hamda moliyaviy iqtisodiy inqiroz holatini yaxshilashga ta'siri aniqlangan (University of Chicago, Texas state university, IASB);

➤ moliyaviy hisobotning konsolidatsiyasi, moliyaviy instrumentlar, qo'shimcha moliyaviy hisobotning metodologik masalalari takomillashtirilgan (IASB, University of Memphis, Santa Clara University);

➤ dunyo mamlakatlarida MHXSlariga o'tish zaruriyati, undagi risklar va muammolar hamda ularni hal qilish yo'llari va MHXSlari asosida moliyaviy hisobot transformatsiyasi uslubiyoti ishlab chiqilgan (Rossiya Federetsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya oorishe va Samarqand iqtisodiyot va servis oorishe).

Jahonda moliyaviy hisobotning nazariy, tashkiliy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'naliшlarda tadqiqotlar olib borilmoqda:

➤ rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish, uni ko'llash yoki unga muvofiqlashtirish;

➤ moliyaviy hisobot garmonizatsiyasi, transparent moliyaviy hisobotni shakllantirish hamda moliyaviy hisobot kompilyatsiyasining metodologik masalalari;

➤ MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish, turli xil milliy valyutadagi mamlakatlarda xalqaro moliyaviy hisobotga transformatsiyalash, konsolidatsiyalash hamda korporativ moliyaviy hisobotni takomillashtirish;

➤ kompaniyalar bankrotligini oldindan bartaraf etish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish maksadida moliyaviy hisobotning foydaliligi, ishonchlilagini hamda axborot tashuvchanligini oshirish yo'llari;

➤ buxgalteriya risklarining moliyaviy hisobotning sifatiga hamda buxgalteriya hisobotlarida axborotlarning shakllanishiga ta'sirini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lsada, lekin ushbu ishlarda moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish hamda hisobotni tuzishning ilgor xorijiy usullarini qo'llash masalalari yetarlicha ohib berilmagan. Bundan tashqari, ushbu muammolarni bir-biriga uzviy bogliqdikda va butun bir yaxlit holda o'rganishga bagishlangan ilmiy ishlar ham yetarli emas. Bularning barchasi ushbu mavzuda ilmiy-tadqiqot olib oorish, shuningdek, uning maqsadi va vazifalarini belgilashga asos bo'ldi.

Bugungi kunda chet el kompaniyalari bilan shartnomalar tuzish odatiy hol bo'lib, butun dunyo bo'ylab investitsiya imkoniyatlarini izlayotgan ko'plab kompaniyalarni uchratish mumkin. Ilgari bu kabi kelishuvlarni amlaga oshirish uchun turli mamlakatlar tomonidan murakkabliklar, risk va ortiqcha xarajatlarni yuzaga keltiradigan milliy standartlar amal qilar edi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari turli mamlakatlar tomonidan bir xil, xalqaro darajada qo'llanadigan hisob va hisobot standartlarini qabul qilinishini ta'minlash orqali ushbu muammolarni hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagagi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qarori MHXSga o‘tishning yangi bosqichini boshlab berdi.[3]

Mazkur qaror bilan 2021-yildan boshlab MHXSga o‘tishi kerak bo‘lgan tashkilotlar ro‘yxati tasdiqlandi, ya’ni aksiyadorlik jamiyatları, tijorat bankları, sug‘urta tashkilotları va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi;

➤ 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi;

➤ 2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud “Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)”, “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)” va “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)” sertifikatlaridan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta’minlashi belgilandi.

Ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Ushbu qarorning ahamiyatli jihatlaridan biri shuki, bu MHXS hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasida tan olinish masalasini hal qilib berdi. MHXS hujjatlarining tan olinishi va uni qo‘llaydigan kompaniyalarining belgilab berilishi, ushbu kompaniya hisobchi va moliya mutaxassislaridan o‘z malakasi ustida doimiy ishlashi va mas‘uliyatni jiddiy his etishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 24 fevraldagagi PQ-4611-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilda 26-yanvarda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi 38-sonli qarori qabul qilindi.[4]

Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori bilan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom tasdiqlandi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘qitish hamda buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida (“MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot”, “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR ACCA)” kurslari va boshqalar) imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibini belgilaydi va 2025-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga yushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 507-son qarori qabul qilindi.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro

standartlari fondi tomonidan qabul qilingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibini belgilaydi.[5]

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matniga MHXS fondi tomonidan qabul qilingan quyidagi hujjatlar kirishi belgilandi:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga tushuntirishlar;
- MHXS hujjatlari matniga kiritiladigan o‘zgartirishlar;
- MHXS hujjatlari matnining ajralmas qismi sifatida MHXS fondi tomonidan belgilangan boshqa hujjatlar.

Xulosa. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishda qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy holat. Eng muhimi, ushbu qiyinchiliklar ortidan erishiladigan foydali jihatlarni tasavvur qilish muhim sanaladi.

MHXSga o‘tishning so’nggi 15 yilda Yevropa, qolaversa, jahon tajribasiga asoslanib, quyidagi ijobiy jihatlarni kuzatish mumkin:

➤ Birinchidan, axborot shaffofligini oshirish – shaffoflik xususiyati sifatli moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta’minlaydi. Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

➤ Ikkinchidan, hisobdorlik oshishi – bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o‘rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchilagini kamaytiradi. Natijada investorlar o‘z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo‘yicha to’laqonli axborotga ega bo‘ladi.

➤ Uchinchidan, iqtisodiy samaradorlik oshishi – yagona moliyaviy tildagi hisobotlarni tahlil qilish asosida, investorlar kapitalni xalqaro miqyosda yo’naltirish va risklarni kamaytirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. To’rtinchidan, bozor likvidligi yaxshilanishi va kapital sarfining pasayishi – moliyaviy axborotlarning bat afsil yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlik bozor likvidligini oshiradi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi.

➤ Besinchidan, kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog’ozlar bozorlarida savdolar ko’laming kengayishi – bo’sh kapital mablag’laridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning turli sohalari zarur kapital bilan ta’milanishi, kapital bozorlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, qimmatli qog’ozlar bozorining muayyan mamlakat ichida shakllanishi va savdolar ko’payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi. Bunda MHXS asosidagi hisobot ma’lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

➤ Oltinchidan, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishi – milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning uchun milliy bozorda xorijiy investorlarga ijobjiy investitsiya muhit yaratilishi hamda investorlar huquqlari himoyalangan bo‘lishi lozim. MHXSning kapital bozor qatnashchilari tomonidan qabul qilinishi va unga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ochiq e’lon qilinishi ushbu jarayonlarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi.

➤ Yettinchidan, moliyaviy tahlilchilar prognozlaridagi anqlik – moliyaviy axborotning sifati va qiyosiyligini ta’minlaydigan muhit moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi va prognozlash tahlillari sifatini oshiradi. Ushbu tahlillar kapitalning samarali boshqaruvi va kelgusida kapital jalb etilishi yoki taqsimlanishi bo‘yicha to’g’ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi

MHXSga o‘tish natijasida erishiladigan amaliy afzalliklar quyidagilardan iborat:

- Aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish investor uchun ham tashkilotning o’zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi;
- Moliyaviy instrumentlarni qo’llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo’nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko’rib chiqilishi mamlakatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;
- Aktivlar qadrsizlanishini o’z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo’yicha choralar ko’rishni talab etmaydi. Natijada yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko’rsatilish riskini yuzaga keltiradi. MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo’yadi;
- Shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo’yicha aniq ko’rsatmalar – foydalanuvchilar to’g’ri qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan operatsiyalar to’g’risidagi axborot, balki kelajakda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;
- Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish – ko’pchilik yirik kompaniyalar o’zining tarkibiga kiruvchi korxonalarni hisobga olgan holda jamlama hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko’rinmay qolishiga sabab bo’lmoqda. MHXS bo’yicha konsolidatsiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minalash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo’yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish rivojlanib borayotgan davlatlarning oldida turgan asosiy vaziflardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonuni. 2016yil 13-aprel, O’RQ-404-son / <https://www.lex.uz>
2. O’zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonuni. 2021 yil 25-fevral, O’RQ-677-son / <https://www.lex.uz>
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4611-sonli Qarori / <https://lex.uz>
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilda 26-yanvarda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo’yicha o’qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to’g’risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi 38-sonli qarori <https://www.lex.uz>
5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga yushuntirishlar matnini tan olish tartibi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 507-sonli qarori / <https://www.lex.uz>
6. Тетерлева, А. С.Международные стандарты финансовой отчетности : [учеб. пособие] / А. С. Тетерлева ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. - 176 с.

7. Вахрушина М. Международные стандарты финансовой отчетности. - М.: Учебник. Издательство: Национальное образование, 2014. – 656 с.
8. Raimova, M. D., & ogli Makhatov, S. I. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT PRIORITIES IN UZBEKISTAN. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 160-168.
9. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 42-47.
10. Эгамбердиева, С. Р. МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ. «ИИНОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ: МУАММО, ТАҲЛИЛ ВА РИВОЖЛANIШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами 20-21 май 2021 й, 460.
11. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
12. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).
13. Музафарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
14. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & HAKIMOVICH, B. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
15. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
16. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Туризм-перспективный сектор экономики Узбекистана. *Economics*, (2 (45)), 14-18.
17. Hakimovich, B. A. (2021). Prospects for Innovative Agricultural Development. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 350-356.
18. Туробов, Ш. А. (2021). ҚИШЛОҚ УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИДА АЁЛЛАР МЕХНАТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
19. Turobov, S. A., & Faxriddinov, B. F. (2021). DEVELOPMENT OF HOME-ENTREPRENEURSHIP-GUARANTEE OF AGRICULTURE STRATEGY. *International journal of trends in marketing management*, 9(1).
20. Усанов, А., & Раҳмонқул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг тутган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
21. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.
22. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO ‘JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 390-394.
23. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).

24. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
25. Aliqulova, A. (2020). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF SECURITIES OF COMMERCIAL BANKS AT THE RSE "TASHKENT". *International Finance and Accounting*, 2020(1), 13.
26. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностранные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
27. Хуррамов, А. (2012). О монографии ИС Абдулаева «ПРОГНОЗИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА». *ва молия Экономика*, 50.
28. Хуррамов, А. Ф. (1993). Арендные отношения и пути их совершенствования в условиях перехода к рыночной экономике (на примере хлопководческих совхозов).
29. Узоков, Н., Хушмурадов, О. Х., & Бабаева, Л. (2014). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *ФЕНОМЕН РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТ ИСТОКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ* (pp. 376-378).
30. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje*., 29, 202-206.
31. https://gazeta.norma.uz/publish/doc/text115712_mhhs_bilan_ishlashga_tayermisiz
32. <https://finacademy.net/materials/article/otchetnost-po-msfo-podgotovka-sostavlenie-elementy-printsipy>
33. <https://finacademy.net/materials/article/otchetnost-po-msfo-podgotovka-sostavlenie-elementy-printsipy>
34. <https://finacademy.net/materials/article/otchetnost-po-msfo-sostav-trebovaniya-predstavlenie>
35. <https://fin-accounting.ru/articles/2018/ifrs-revised-conceptual-framework-for-financial-reporting-2018>
36. Ainsworth, Penne. Introduction to Accounting: An integrated Approach /Penne Ainsworth, Dan Deines, R. David Plumlee, Cathy Xanthaky Larson. Irwin, Printed in USA, 2005. 425 p.; Anthony, Robert Newton. Accounting
37. Yakubova, S., & Qosimov, J. (2022). MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATSIYA TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY ASOSI. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 5(7).
38. Yakubova, S. S., Egamberdiyeva, S. R., & Boyqobilov, F. S. (2022). TA'LIM MUASSASASI VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGI SALOHIYATLI KADR TAYYORLASHNING ASOSIY OMILIDIR. *Gospodarka i Innowacje*., 24, 211-216.
39. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. *Theoretical & Applied Science*, (12), 104.
40. Yakubova, S. S. (2021). ANALYSIS OF COUNTRY DEBT POLICIES AND ITS EFFECTIVE GOVERNANCE. *Theoretical & Applied Science*, (3), 410-413.
41. Yakubova, S. S. (2020). DEPOSIT POLICY OF COMMERCIAL BANKS AND WAYS OF ITS EFFECTIVE FORMATION. *Theoretical & Applied Science*, (11), 577-581.

42. Якубова, Ш. Ш. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ МООС (МАССОВЫЕ ОТКРЫТЫЕ ОНЛАЙН-КУРСЫ) В ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ УЗБЕКИСТАНА. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 217-224.
43. YAKUBOVA, S. S., & RAIMOVA, M. D. THE ROLE OF EFFECTIVE IMPLEMENTATION OF MONETARY POLICY IN A PANDEMIC CONDITION. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 349-352.